

KAPITALNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI: TURLARI, BAHOLASH TAMOYILLARI VA ZAMONAVIY RAQAMLI AKTIVLAR

Husanova Gulsanam Bahodirjon qizi

Namangan Davlat Universiteti, Iqtisodiyot fakulteti, 60410600

Bank ishi yo'nalishi BI-BU-25 guruhi 1-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA: Mazkur ishda kapitalning iqtisodiy mohiyati, uning turlari va ishlab chiqarish jarayonidagi funksional ahamiyati yoritilgan. Asosiy va aylanma kapitalning tarkibi, ularning foydalanish muddati, qiymatning mahsulotga o'tishi hamda eskirish jarayonlari izchil tahlil qilingan. Asosiy kapitalning jismoniy va ma'naviy eskirishi, amortizatsiya hisoblash mexanizmi hamda undan olingan daromadni qayta tiklash jarayoni amaliy misollar orqali ko'rsatib berilgan. Aylanma kapitalning tez aylanishi korxona likvidligi va daromadlilikiga ta'sir qiluvchi omil sifatida asoslab berilgan.

Shuningdek, kapital qiymatining kelajakdagi daromad bilan bog'liqligi, ssuda foizi, pulning vaqt qiymati tamoyili va diskontlash jarayonining investitsiya loyihalarini baholashdagi o'rni ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan izohlangan. Kapital bozorining yangi segmenti bo'lgan kriptovalyutalar, ularning blokcheyn texnologiyasiga asoslangan markazlashmagan tuzilmasi hamda mayning jarayonining iqtisodiy mexanizmlari haqida ham umumlashtirilgan ma'lumotlar berilgan. Ushbu yondashuv kapitalning an'anaviy va zamonaviy shakllarini kompleks ko'rib chiqishga imkon yaratadi.

KALIT SO'ZLAR: Kapital, Asosiy kapital, Aylanma kapital, Amortizatsiya, Eskirish, Aylanish tezligi, Ssuda foizi, Diskontlash, Investitsiya, Kriptovalyuta, Blokcheyn, Mayning.

ANNOTATION: This study highlights the economic essence of capital, its types, and its functional significance in the production process. The composition of fixed and circulating capital, their usage duration, the transfer of value to products, and depreciation processes are analyzed in detail. The physical and moral depreciation of fixed capital, the mechanism of calculating amortization, and the process of restoring the value of capital through the income it generates are illustrated with practical examples. The rapid turnover of circulating capital is justified as a factor directly affecting a company's liquidity and profitability.

Furthermore, the relationship between the value of capital and potential future income, the concept of interest rates, the time value of money, and the role of discounting in evaluating investment projects are explained from a scientific and theoretical perspective. The study also provides a summary of new segments of the capital market, such as cryptocurrencies, their decentralized blockchain-based structure, and the economic mechanisms of mining. This approach allows for a comprehensive understanding of both traditional and modern forms of capital.

KEYWORDS: Capital, Fixed Capital, Circulating Capital, Depreciation, Wear and Tear, Turnover Rate, Interest Rate, Discounting, Investment, Cryptocurrency, Blockchain, Mining.

АННОТАЦИЯ: В данной работе раскрыта экономическая сущность капитала, его виды и функциональное значение в производственном процессе. Проанализированы состав основного и оборотного капитала, сроки их использования, перенос стоимости на продукцию и процессы износа. Физический и моральный износ основного капитала, механизм начисления амортизации и процесс восстановления стоимости капитала за счет получаемого дохода иллюстрированы на

практических примерах. Быстрое обращение оборотного капитала обосновано как фактор, непосредственно влияющий на ликвидность и рентабельность предприятия.

Кроме того, рассмотрена зависимость стоимости капитала от будущего дохода, процентная ставка, принцип временной стоимости денег и роль дисконтирования при оценке инвестиционных проектов с научно-теоретической точки зрения. Также приведена обобщенная информация о новом сегменте капитального рынка — криптовалютах, их децентрализованной структуре на основе технологии блокчейн и экономических механизмах майнинга. Такой подход позволяет комплексно рассмотреть как традиционные, так и современные формы капитала.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Капитал, Основной капитал, Оборотный капитал, Амортизация, Износ, Скорость обращения, Процентная ставка, Дисконтирование, Инвестиция, Криптовалюта, Блокчейн, Майнинг.

KIRISH. Kapital iqtisodiy faoliyatning asosiy resurslaridan biri bo'lib, ishlab chiqarish jarayonida uzoq muddatli ishlatiladigan vositalar sifatida ahamiyat kasb etadi. Uzoq muddatli va qisqa muddatli resurslarni o'z ichiga olgan kapitalning turlari – asosiy va aylanma kapital – ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Asosiy kapital uzoq muddat ishlatiladigan vositalar (binolar, uskunalar, texnologik liniyalar)ni, aylanma kapital esa tez-tez aylanadigan resurslar (xom-ashyo, materiallar, yarim tayyor mahsulotlar)ni ifodalaydi.

Kapitaldan foydalanish jarayonida uning qiymati mahsulot qiymatiga o'tadi va u jismoniy hamda ma'naviy jihatdan eskiradi. Asosiy kapitalning amortizatsiya mexanizmi va aylanma kapitalning tez aylanishi ishlab chiqarish samaradorligini, korxona likvidligi va daromadlilikini belgilovchi muhim omillardan hisoblanadi. Shu bilan birga, kapital

qiymati kelajakda olinishi mumkin bo'lgan daromad bilan belgilanadi va ssuda foizi, pulning vaqt qiymati tamoyili hamda diskontlash jarayoni orqali investitsiya loyihalarini baholashda hisobga olinadi.

Hozirgi davrda kapital bozorining jadal rivojlanayotgan segmentlaridan biri kriptovalyutalar bo'lib, ular blokcheyn texnologiyasiga asoslangan markazlashmagan tizim sifatida moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda yangi imkoniyatlarni yaratadi. Ushbu tizimlarning mohiyatini tushunish ularni samarali qo'llash va iqtisodiy natijalarni optimallashtirishda muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Kapital tushunchasi iqtisodiy adabiyotlarda uzoq vaqt davomida ishlab chiqilgan va turli olimlar tomonidan tahlil qilingan. Klassik iqtisodiyot vakillari – A. Smit va D. Rikardo – kapitalni ishlab chiqarish omili sifatida talqin qilgan, u orqali daromad yaratish mumkinligini ta'kidlagan. K. Marks esa kapitalning qiymat yaratish funksiyasiga e'tibor qaratib, uning asosiy va aylanma shakllarini ajratib ko'rsatgan. Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda esa kapitalning samaradorligini baholashda amortizatsiya, eskirish, ssuda foizi, pulning vaqt qiymati va diskontlash mexanizmlari keng o'rganilgan. Shu bilan birga, kapital turlarining iqtisodiy ta'siri va aylanish tezligi korxona daromadliligi va likvidligi kontekstida tahlil qilinadi.

Aylanma kapitalning tez aylanishi va uning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri, shuningdek, asosiy kapitalning uzoq muddatli ishlatilishi va amortizatsiya mexanizmlari iqtisodiy modellashtirish metodlari orqali baholangan. Diskontlash usuli va pul oqimlarini joriy qiymatga keltirish mexanizmi investitsiya loyihalarini tahlil qilishda qo'llanilgan asosiy metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, kriptovalyutalar va blokcheyn texnologiyasi bo'yicha ilmiy va amaliy adabiyotlar tahlili raqamli iqtisodiyot sharoitida kapitalning yangi shakllarini o'rganishga imkon beradi. Kriptovalyutalarning markazlashmagan tuzilishi, P2P tarmoq printsipi va mayning jarayoni zamonaviy moliyaviy operatsiyalarni tahlil qilishda qo'llaniladigan metodlarni shakllantiradi.

Ushbu ishda metod sifatida iqtisodiy tahlil, solishtirma baholash, diskontlash va modellash metodlari ishlatilgan. Shu orqali kapitalning an'anaviy va zamonaviy shakllari bo'yicha samaradorlikni baholash, kelajakdagi daromadlarni prognoz qilish va investitsiya loyihalarini optimallashtirish imkoniyati yaratilgan.

NATIJALAR. Kapital – ishlab chiqarish jarayonining asosiy omillaridan biri bo'lib, u uzoq muddatli oraliqda ishlatiladigan resurs hisoblanadi, ya'ni uning yordamida uzoq vaqt davomida mahsulot ishlab chiqariladi.

Kapitalning ikki xil turi mavjud: asosiy kapital (uzoq muddat foydalaniladigan vositalar: binolar, uskunalar, texnologik liniyalar); aylanma kapital (tez-tez aylanadigan resurslar: xom-ashyo, materiallar, yarim tayyor mahsulotlar)¹.

Asosiy kapitaldan uzoq muddatda foydalaniladi va u o'zini qayta takror ishlab chiqaradi, ya'ni undan foydalanilish jarayoni davomida uning qiymatining ma'lum qismi mahsulot qiymatiga o'tadi. Kapitaldan foydalanish davomida u ham ma'naviy jihatdan, ham jismoniy jihatdan eskiradi. Jismoniy eskirish – bu kapitalning vaqt o'tishi mobaynida yaroqsiz holatga kelishi bo'lsa, ma'naviy eskirish kapitalning unumdorligining kamayishi, ya'ni yangi ishlab chiqarilgan zamonaviy uskunalariga nisbatan unumdorligining pastligi yoki umuman barcha ko'rsatkichlar, masalan, mahsulot sifati, foydalanishga qulayligi bo'yicha yangi, takomillashtirilgan uskunadan orqada qolganligi hisoblanadi. Asosiy kapital egasi kapital qiymatini undan foydalanish jarayonida qayta tiklaydi². Misol uchun mahsulot ishlab chiqarishda foydalaniladiga uskuna 3000000 so'm bo'lib, undan foydalanish davomiyligi 10 yil bo'lsa, uning qiymati 10 yil davomida teng qiymatlarda mahsulot qiymatiga o'tkaziladi deb qaraydigan bo'lsak, ishlab chiqaruvchi har yilgi daromadidan 300000 so'mdan amortizatsiyaga ajratish kerak bo'ladi.


¹ Capital (economics) [https://en.wikipedia.org/wiki/Capital_\(economics\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Capital_(economics))

² Fixed Capital

https://en.wikipedia.org/wiki/Fixed_capital

Aylanma kapital – bu korxonada qisqa muddat davomida to‘liq iste‘mol qilinadigan va o‘z qiymatini mahsulotga to‘liq o‘tkazadigan resurslardir. Ular ishlab chiqarish jarayonida bir marta qatnashadi va tezda pul shakliga qaytadi. Aylanma kapitalning asosiy xususiyati – tez aylanishi. Ya’ni korxona tomonidan xarid qilingan xom ashyo ishlab chiqarishda ishlatiladi, mahsulotga aylanadi, sotilgandan so‘ng yana pul shaklida korxonaga qaytadi. Shu sababli aylanma kapitalning aylanish tezligi korxonaning daromadlilikiga bevosita ta’sir qiladi³. Masalan, korxona 50 million so‘mlik xom ashyo sotib olsa va uni mahsulot ishlab chiqarish jarayonida bir oy ichida to‘liq ishlatib yuborsa, mahsulot sotilganidan keyin bu mablag‘ yana pul ko‘rinishida qaytadi. Demak, aylanma kapital doimiy ravishda ishlab chiqarish jarayonida harakatda bo‘ladi.

Kapital turlari bo‘yicha iqtisodiy ta’sir va aylanish tezligi.



Grafikda kapital turlari kesimida iqtisodiy ta’sir va aylanish tezligi ko‘rsatkichi ifoda etilgan. Ma’lumotlar kapitalning umumiy samaradorligini taqqoslash imkonini beradi.

Kapitalning qiymati, undan foydalanish natijasida kelajakda olinishi mumkin bo‘lgan daromad miqdori bilan belgilanadi. Kelajakdagi yuqori daromadga erishish istagi iqtisodiy agentlarni joriy iste‘molning bir qismini cheklab, uni jamg‘arishga yo‘naltirishga

³ Iqtisodiyot.dtm.uz — “Aylanma kapital” ta’rifi va iqtisodiy mazmuni <https://iqtisodiyot.dtm.uz/termin/aylanma-kapital/>

undaydi. Jamg'arilgan mablag'lar pul shaklidagi kapital sifatida tadbirkorlarga ma'lum muddatga qo'shimcha qiymat bilan qaytarish sharti asosida berilishi mumkin. Ushbu qo'shimcha qiymat kapitaldan olinadigan foiz sifatida talqin qilinadi.

Ssuda foizi – kapital egasi tomonidan o'z mablag'idan foydalanishga ruxsat berilgan vaqt oralig'i uchun undiriladigan to'lov, ya'ni kapitaldan foydalanish narxidir⁴. Kapitaldan foydalanish samaradorligini baholash jarayonida bugungi kunda amalga oshiriladigan xarajatlarni kelajakda yuzaga keladigan xarajatlar bilan, shuningdek joriy daromadni kelajakdagi daromad miqdori bilan solishtirish zarur bo'ladi. Bunda vaqt qiymati tamoyili hisobga olinadi, chunki bugungi bir birlik pul qiymati kelajakdagi bir birlik pul qiymatiga teng emas.

Turli vaqt davrlariga tegishli bo'lgan xarajat va daromadlarni bir xil boshlang'ich vaqt nuqtasiga keltirish uchun diskont koeffitsientidan foydalaniladi. Ana shu jarayon – ya'ni kelajakdagi pul oqimlarini joriy vaqt qiymatiga moslashtirish – diskontlash deb ataladi⁵. Diskontlash mexanizmlari investitsiya loyihalarini iqtisodiy baholashda keng qo'llanadi. Investitsiyalarni tahlil etish jarayonida loyihaning yillar davomida talab qiladigan kapital qo'yilmalari bilan undan olinadigan daromadlar o'zaro solishtiriladi. Kelajakdagi daromadning joriy qiymati odatda past bo'ladi, chunki bugungi kapital alternativ foydalanish orqali (foiz ko'rinishida) qo'shimcha daromad keltirishi mumkin. Shunday qilib, investitsiya loyihasining qiymatini aniqlashda bugungi kapital qo'yilmalarini kelajakda olinadigan foyda bilan solishtirish va ularni yagona vaqt nuqtasiga keltirish zarurdir.

Hozirgi davrda kapital bozorining jadal rivojlanayotgan segmentlaridan biri – kriptovalyutalar hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan bog'liq holda blokcheyn texnologiyasi va kriptovalyutalar asosida amalga oshiriladigan moliyaviy

⁴ Economic Glossary — Loan Interest <https://economicglossary.org/loan-interest/>

⁵ Biz.uz — Iqtisodiyot atamaları lug'ati (Diskontlash va NPV izohlari) <https://biz.uz/uz/search?q=diskont+stavka+NPV>

operatsiyalar ko‘laminig kengayib borayotgani kuzatilmoqda. Mazkur tizimlarning mohiyatini chuqur anglash ularni samarali qo‘llashda muhim omildir⁶.

Blokcheyn va kriptovalyuta tizimlarining asosiy xususiyati ularning markazlashmagan (decentralized) tuzilmasidir. Ushbu tizimda an’anaviy moliya tizimlarida bo‘lgani kabi yagona markaziy boshqaruv organi, masalan, bank yoki davlat muassasasi mavjud emas. Tarmoq P2P (peer-to-peer) prinsipi asosida, ya’ni teng huquqli tugunlar (mijoz dasturlari) o‘rtasidagi o‘zaro aloqa orqali faoliyat yuritadi. Tarmoqdagi har bir ishtirokchi – bu o‘zini o‘zi ta’minlovchi mustaqil dastur bo‘lib, u global kriptovalyuta tarmog‘iga ulangan holda uzluksiz, avtomatik ravishda ishlaydi.

Kriptovalyutalarning yaratish jarayoni mayning deb yuritiladi. Mayning – kompyuterlarning hisoblash quvvatidan foydalanib, tranzaksiyalarni bloklarga birlashtirish va ularni blokcheyn zanjiriga qo‘shishdan iborat jarayondir⁷. Har bir blok muayyan murakkablik darajasiga ega bo‘lib, tarmoqqa qo‘shilishidan avval maxsus tekshiruvdan o‘tishi lozim.

XULOSA. Mazkur ishda kapitalning iqtisodiy mohiyati, uning turlari va ishlab chiqarish jarayonidagi roli tahlil qilindi. Asosiy kapitalning uzoq muddatli ishlatilishi, amortizatsiya va eskirish jarayonlari, shuningdek aylanma kapitalning tez aylanishi korxona samaradorligi va likvidligiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar sifatida ko‘rib chiqildi. Kapital qiymati va undan kelajakda olinadigan daromad bilan bog‘liqligi, ssuda foizi, pulning vaqt qiymati tamoyili hamda diskontlash mexanizmlari investitsiya loyihalarini baholashda muhim vosita ekanligi ta’kidlandi.

Shuningdek, kapital bozorining zamonaviy segmenti sifatida kriptovalyutalar, blokcheyn texnologiyasi va mayning jarayoni ham ko‘rib chiqildi. Ushbu tizimlarning

⁶ World Economic Forum — What is the digital economy? <https://www.weforum.org/agenda/2016/01/what-is-the-digital-economy/>

⁷ Mining (blockchain) [https://en.wikipedia.org/wiki/Mining_\(blockchain\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Mining_(blockchain))

markazlashmagan tuzilmasi va P2P prinsipi raqamli iqtisodiyotda moliyaviy operatsiyalarni samarali tashkil etishga imkon beradi.

Umuman olganda, kapitalning an'anaviy va zamonaviy shakllarini kompleks tarzda o'rganish korxona va investorlar uchun iqtisodiy samaradorlikni oshirish, kelajakdagi daromadni prognoz qilish hamda investitsiya loyihalarini optimallashtirish imkonini yaratadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Capital (economics) [https://en.wikipedia.org/wiki/Capital_\(economics\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Capital_(economics))
2. Fixed Capital
3. https://en.wikipedia.org/wiki/Fixed_capital
4. Iqtisodiyot.dtm.uz — “Aylanma kapital” ta'rifi va iqtisodiy mazmuni <https://iqtisodiyot.dtm.uz/termin/aylanma-kapital/>
5. Economic Glossary — Loan Interest <https://economicglossary.org/loan-interest/>
6. Biz.uz — Iqtisodiyot atamaları lug'ati (Diskontlash va NPV izohlari) <https://biz.uz/uz/search?q=diskont+stavka+NPV>
7. World Economic Forum — What is the digital economy? <https://www.weforum.org/agenda/2016/01/what-is-the-digital-economy/>
8. Mining (blockchain) [https://en.wikipedia.org/wiki/Mining_\(blockchain\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Mining_(blockchain))